

Bir marta foydalaniladigan noto'qima matoli jarrohlik to'plamlarini radiatsiyaviy usulda zararsizlantirish

Hozirgi kunda tibbiyotda polipropilen asosida ishlab chiqilgan noto'qima matolar tibbiyot xodimlari va bemorlarning tozaligini hamda gigienasini ta'minlash uchun ishlatalmoqda. Noto'qima matolari yengil, mustahkam va bakteriyalar o'tkazuvchanligi bo'yicha paxta matolariga nisbatan 10 baravar yaxshi himoya qiladi. Noto'qima matolarning har xil turlari mavjud: SMS (spanbond-meltblaun-spanbond), Spanleys (fibrella), laminatsiyalangan Spanleys, Spanbond va laminatsiyalangan Spanbond. Tibbiyotda asosan SMS, Spanleys va Spanbond noto'qima matolardan tayyorlangan bir martalik buyumlar ishlataladi, chunki ular havoda zaharli birikmalar hosil qilmaydi. Ushbu matolardan bir martalik foydalaniladigan xalatlar, choyshablar, baxillalar, niqoblar, bog'lagichlar va boshqalar ishlab chiqarishda ishlataladi. Bir marta foydalaniladigan jarrohlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zichligi ~ 45 g/m² o'lgan SMS noto'qima matolaridan foydalaniladi. Noto'qima SMS matolari o'zidan bakteriyalarni o'tkazmaslik noyob xususiyatiga va iqtisodiy jihatdan arzonligi tufayli bugungi kunda tibbiyotda keng qo'llanilmoqda.



Hozirgi vaqtda bir marta foydalaniladigan tibbiyot buyumlarini zararsizlantirish tezlashtirilgan elektronlar manbalari, ya'ni, elektron tezlatgichli qurilmalar yordamida radiatsiyaviy usul bilan amalga oshirilmoqda. Respublikamizda FA Yadro fizikasi institutida "Elektronika U-003" elektron tezlatgichi qurilmasida radiatsiyaviy usul bilan noto'qima matodan tayyorlangan bir martalik jarrohlik to'plamlarini zararsizlantirish mahsulotlarni hajmi bo'yicha bir xil sterillanganligini ta'minlagan holda va ularning mustahkamligini saqlagan holda amalga oshiriladi. Noto'qima matodan tayyorlangan bir marta foydalaniladigan jarrohlik to'plamlari soatiga 1,2 m³ ishlab chiqarish quvvati bilan is'temolchilarga yetkazib beriluvchi germetik qadoqlangan holda zararsizlantiriladi.